



Kimyog'ar

Ijtimoiy-iqtisodiy gazeta

Gazeta 1979 yil yanvar oyidan chiqa boshlagan.



**YANGI TAHRIRDAGI
MEHNAT KODEKSINI
O'RGANAMIZ**

2-bet




3-стр.

**ДЕРЕВО ЦЕНЯТ
ПО ПЛОДАМ,
А ЧЕЛОВЕКА
ПО ДЕЛАМ**

4-стр.

**30-APREL KUNI
UMUMXALQ
REFERENDUMI
BO'LIB O'TADI**



**Hurmatli, "Farg'onaazot" AJ
ishchi-xodimlari!
Biz Konstitutsiyamizga
kiritilayotgan o'zgarishlarga
befarq emasmiz. Sizlarni
ham befarq bo'lmaslikka
chorlaymiz!**

Matbuot anjumani

Korxonada 2022-yil davomida ishlab-chiqarish quvvatlarini oshirish va tannarxni pasaytirish bo'yicha amalga oshirilgan hamda 2023-yilda ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va barqaror ishlashini ta'minlash maqsadida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan loyiha va chora-tadbirlar mavzusida matbuot anjumani bo'lib o'tdi.



Anjumanga viloyatimizda faoliyat ko'rsatib kelayotgan jurnalist va blogerlar tashrif buyurdilar. Korxonada boshqaruvi raisi iqtisod va moliya bo'yicha o'rinbosari Gulomjon Soliyev OAV vakillariga mazkur mavzu bo'yicha barcha ma'lumotlarni berib o'tdi. Ishlab chiqarish texnik boshqarmasi yetakchi mutaxassisi Avazbek Abdullayev

esa sohaga oid taqdimot namoyish etib, tushuntirish berdi. Anjumanning savol-javob qismida jamiyatning iqtisodiy salohiyati, ishlab-chiqarish, mahsulotlar tannarxi kabi savollar o'rtaga tashlandi. OAV vakillarining barcha savollariga jamiyat bosh mutaxassislari to'liq javoblar berildi.

O'z muxbirimiz.



Amir Temur VIKTORINASI

Amir Temur — insoniyat tarixidagi eng qat'iyatli shaxslardan biridir. Turli manbalarga tayangan holda u ham hukmdor, zobit, sarkarda va jangchi sifatida gavdalanadi.

Ta'kidlash joizki, Amir Temur tarix sahifalarida Aleksandr Makedonskiy, Dariy-I, Yuliy Sezar kabi yirik sarkardalar bilan bir qatorda turadi. Shunday ulug' shaxs bizning ajdodimiz ekanligi esa chuqur g'urur hissini bag'ishlaydi. Shu sababli, jamiyatda tariximizga muhrlangan bobokolonimizning hayot yo'lini, jang-gu jadallari, bosib o'tgan har bir qadimini yoshlar ongiga yanada singdirish maqsadida, Amir Temur tavallud topgan kun munosabati bilan korxonada yoshlari o'rtasida "Amir Temur viktorinasi" o'tkazildi.

Onlayn tarzda o'tkazilgan viktorinada 20 ta savol o'ynaldi. 60 dan ziyod ishchi-xodimlar ishtirok etdi. Viktorina natijalariga ko'ra, I-o'rin Iqboljon Soibjonov va Sherzodxon Jamolovlarga, II-o'rin Ziyodaxon Egamberdiyevaga va III-o'rin Nuriddin Aminjonovga nasib etdi. Barcha g'oliblar qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandilar.

O'z muxbirimiz.

MILLIY MA'NAVIYAT – MILLAT RUHI

Ota-onaning qanday insonligini farzandining kiyinishidan bilsa bo'ladi. Jamiyat rivojlanib borar ekan bunda insonlar, xalqlar, millatlarning o'zaro ma'naviy munosabatlari, aloqalari rivojlanib boradi.

Ma'naviyatni 4 guruhga bo'lish mumkin, ya'ni, shaxs ma'naviyati, milliy ma'naviyat, mintaqaviy ma'naviyat va umuminsoniy ma'naviyat. Bugungi maqolamizda biz milliy ma'naviyat haqida so'z yuritamiz.

Milliy ma'naviyat – muayyan elat, millat, uning ajdodlariga xos bo'lgan g'oyat qimmatli manaviy boyliklardir.

Milliy ma'naviyat millatning o'ziga xosligini aks ettiruvchi, "men"ligini ko'rsatuvchi, o'zligini belgilovchi botiniy aqliy – ruhiyat ekanligiga asosiy e'tiborni qaratish lozim. Chunki ichki botiniy aqliy – ruhiyat shunday baquvvat kuchki, u har qanday sharoitda ham millatni o'zligini saqlab qolishga, o'z or – nomusi, g'ururi, obro' – etibori uchun kurashga undaydi. U milliy tuyg'ular va g'oyalarni boyitib turadi. Bu jarayonlar ko'zga ko'rinmasa ham quloqqa chalinmasa ham u millatning o'z ozodligi, mustaqilligi uchun kurashlarida o'ziga millatlar bilan o'zaro "farqlanishida", yutuqlarga, taraqqiyotga intilishlarida yaqqol namoyon bo'lib turadi. Bu jarayonlarni harakatga keltiruvchi asosiy kuch millatning o'zligini anglashi bo'lsa, uni uzluksiz ravishda energiya bilan ta'minlab turadigan asosiy

manba – milliy ma'naviyatdir.

Demak, milliy ma'naviyat ajdodlar tomonidan asrlar, zamonlar osha bizga meros bo'lib, avlodlardan avlodga o'tib kelmoqda. Tarixiy jarayonlar davomida bu ma'naviy meros bizning ruhimizga singib kelmoqda. Bular bizning kiyinishimizda, xatti – harakatimizda, katta yoshdagi insonlarga hurmatda bo'lish, ustozlarni ulug'lash, ota – onaga itoatkor bo'lish, so'zlashuv madaniyati, salomlashuv madaniyati, oila madaniyati, farzand tarbiyalash madaniyati va hokazolalar. Bu satriklarni yana davom ettirish mumkin. Sababi, ma'naviy qadriyatlarimiz barchasi ongimizga, ongimiz orqali ruhimizga singdirilganligidadir. Bu ma'naviy qadriyatlar asrlar davomida jamiyatlar, millatlar va xalqlar tomonidan shakllantirilgan bo'lib, insonni komillik sari yetaklovchi, komillik ruhida tarbiyalovchi ma'naviy qudrat hisoblanadi.

Masalan, hozirgi kunda bilishimiz kerak bo'lgan asosiy qadriyatlarimizdan biri – oila ma'naviyatidir. Zero, oila kichik davlat hisoblanadi. Bejizga "Oila tinch – yurt tinch", "Oila – qo'sh ustunli ayvon" demaydilar dono xalqimiz. Oila xuddi jang maydoniga o'xshaydi. Bu maydonga bilagi baquvvat emas, farosati

kuchli g'alaba qozonadi.

Milliy ma'naviyatning barbod bo'lishi muqarrar ravishda uning o'zini ham taraqqiy qilgan millatlarga assimilyatsiya bo'lib (qo'shilib) ketishiga olib keladi. Bu o'z navbatida, butun insoniyat ma'naviyatining yemirilishiga ta'sir o'tkazadi. Shunday ekan, urush-janjallardan, ma'naviy buzulq, aqidaparastlik kabi qabih g'oyalardan, xususan, yoshlar ongini buzilishi kabi illatlarni oldini olishning birdan- bir yo'li ma'rifat va ma'naviyatga, ya'ni, har- bir insonga xos bo'lgan buyuk tuyg'ularga yetarli ahamiyat berishdir.

Shu o'rinda, davlatimiz rahbarining "Yangi O'zbekistonni yetuk ma'naviyatli jamiyat, erkin va baxtli insonlar yashaydigan yurtga aylantirishimiz lozim", degan iboralarni keltirish juda o'rinni deb hisoblaymiz. Chunki bu so'zlar zamirida ulug'vor maqsad mujassam ekanini yanada teran anglashimiz lozim.

Ilhom MIRZAXMEDOV,
O'zbekiston Respublikasi Din ishlari
bo'yicha qo'mitaning Farg'ona viloyati
Farg'ona shahar hududiy boshqarmasi
bosh mutaxassisi.



YANGI TAHRIRDAGI MEHNAT KODEKSINI O'RGANAMIZ

Bu haqida korxonada yuridik bo'limi boshlig'i o'rinbosari Mahmud Qayumov batafsil tushuncha berdi.

— Mahmud Muhamedovich. **Gazetamizning o'tgan sonlarida Yangi Mehnat Kodeksini qabul qilishning zarurati, unga kiritilgan yangi narmalar, ish beruvchi va xodimning huquq va majburiyatlari to'g'risida suhbatlashgan edik. Aytinch, Kodeksda mehnat shartnomasi tushunchasi, uning tarafdari, ishga qabul qilishning tartib-taomillari, mehnat shartnomasini o'zgartirish va xodimni boshqa ishga o'tkazish va ish safariga yuborish, ish joyini belgilash qanday tartibga solingan.**

— Yangi Mehnat Kodeksining "Mehnat shartnomasi" bobi 79 ta maddadan iborat bo'lib, uning tarkibida birlashtiradi va tarafdari asosiy huquq va majburiyatlarini belgilaydi, shartnoma mazmunini, uning zaruri va qo'shimcha shartlarini ochib berishga jiddiy e'tibor berilgan.

Mehnat shartnomasining tushunchasi va tarafdari to'xtaladigan bo'lsak -Mehnat shartnomasi xodim va ish beruvchi o'rtasidagi tarafdari o'zaro huquqlari hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuv bo'lib, unga muvofiq xodim ish beruvchining manfaatini ko'zlab, ushbu kelishuvda belgilangan mehnat vazifasini uning rahbarligi va nazarati ostida shaxsan bajarish, ichki mehnat qoidalari rioya etish majburiyatini, ish beruvchi esa xodimga shartlashilgan mehnat vazifasi bo'yicha ish berish, xodimga ish haqini o'z vaqtida hamda to'liq miqdorda to'lash, mehnat to'g'risidagi qonunchilikda, mehnat haqidagi boshqa huquqiy holatlarda va ushbu kelishuvda nazarda tutilgan mehnat sharoitlarini ta'minlash majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Xodim va ish beruvchi mehnat shartnomasining tarafdari.

Mehnat Kodeksining 104-moddasida mehnat shartnomasiga kiritiladigan shartlar belgilangan bo'lib, unda ish joyi, mehnat vazifasi, ishning boshlanish sanasi, mehnatga haq to'lash shartlari (shu jumladan, xodimning tarif stavkasi yoki maoshi miqdori, qo'shimcha to'lovlar, ustamalar va rag'batlantiruvchi to'lovlar), ish vaqti va dam olish vaqti rejimi, mehnat to'g'risidagi qonunchilikda va mehnat haqidagi boshqa huquqiy holatlarda nazarda tutilgan hollardagi boshqa shartlar qayd etilgan.

Mehnat Kodeksi nafaqat mehnat shartnomasi yozma shaklda tuzilishi kerakligini, balki unda qanday majburiy rekvizitlar ko'rsatilishi kerakligini belgilaydi.

Mehnat shartnomasi ish beruvchi va xodim tomonidan imzolangan kundan e'tiboran kuchga kiradi va xodim mehnat shartnomasida belgilangan sanadan e'tiboran mehnat vazifalarini bajarishga kirishishi shart. Agar mehnat shartnomasida ish boshlanadigan kun belgilanmagan bo'lsa, xodim shartnoma kuchga kirgan kundan keyingi ish kunida ishga kirishishi kerak.

Mehnat shartnomasi nomuayyan muddatga, uch yildan ko'p bo'lmagan muayyan muddatga (muddatli mehnat shartnomasi) tuzilishi mumkin. Agar mehnat shartnomasida uning amal qilish muddati shartlashilmagan bo'lsa, shartnoma nomuayyan muddatga tuzilgan deb hisoblanadi. Kodeksda xodim bilan muddatli mehnat shartnomasi tuzilishi mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan holatlar cheklab qo'yilgan, shartnoma muddatini belgilash usullari shartlashilgan.

Ish beruvchi xodimdan mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilmagan ishni bajarishni, qonunga xilof bo'lgan,

xodimning yoki boshqa shaxslarning huquqlarini buzadigan, hayoti va sog'lig'ini xavf ostiga qo'yadigan, ularning sha'ni, qadr-qimmatini hamda ishchanlik obro'siga putur yetkazadigan harakatlarni amalga oshirishi talab qilishga haqli emas.

Xodimning yozma arizasiga ko'ra ish beruvchi ariza berilgan kundan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay xodimga ish bilan bog'liq holatlarini (ishga qabul qilish to'g'risidagi, boshqa ishga o'tkazish haqidagi buyruqlarning ko'chirma nusxalarini; mehnat daftarchasidan yoxud elektron mehnat daftarchasidan ko'chirmalarni; ish haqi to'g'risidagi, hisoblangan hamda xodim tomonidan haqiqatdan to'langan soliqlar va yig'imlar haqidagi, mazkur ish beruvchida ishlagan davri to'g'risidagi ma'lumotnomalarni va boshqalarni) berishi shart.

Yangi Mehnat Kodeksida ishga qabul qilishning tartib-taomillari, uning bosqichlari belgilangan, ishga qabul qilishda talab etiladigan hujjatlar ro'yxati aniqlashtirilgan. Xodimga haqiqatda ishlagan ruxsat berishga alohida modda bag'ishlangan, unda xodimni ishga qo'yishning huquqiy oqibatlari batafsil bayon etilgan.

Mehnat Kodeksining 121-moddasida o'zaro yaqin qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo'lgan shaxslarning (ota-ona, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, er-xotin, shuningdek, er-xotinning ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari) aynan bitta davlat tashkilotida birga xizmat qilishi, agar ularning birga xizmat qilishi ularning birining ikkinchisiga bevosita bo'yusinishiga yoki uning nazarati ostida bo'lishiga bog'liq bo'lsa taqiqlanishi belgilangan.

Ishga qabul qilish ish beruvchining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi. Buyruq

chiqarish uchun xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi asos bo'ladi. Buyruq xodimga ish haqiqatdan boshlangan kundan e'tiboran uch kunlik muddatda, imzo qo'ydirib e'lon qilinadi. Xodimning talabiga ko'ra ish beruvchi unga mazkur buyruqning lozim darajada tasdiqlangan ko'chirma nusxasini berishi shart.

Ishga qabul qilish chog'ida xodimning topshirilayotgan ishga muvofiqligini tekshirish, mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan ishni davom ettirish maqsadga muvofiqligi haqidagi xodim tomonidan qaror qabul qilish maqsadida dastlabki sinov belgilanishi mumkin. Xomilador ayol, uch yoshga to'lmagan bolani bolalari yoki uch yoshga to'lmagan bolani yolg'iz o'zi tarbiyalayotgan ota (vasiy) va qonunda belgilangan boshqa holatlarda dastlabki sinov belgilanmaydi. Dastlabki sinov muddati uch oydan, tashkilotlarning rahbarlari va ularning o'rinbosarlari, bosh buxgalterlar hamda tashkilotlar alohida bo'linmalarining rahbarlari uchun esa olti oydan oshmasligi kerak. Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik davri va xodim haqiqatda ishda bo'lmagan boshqa davrlar dastlabki sinov muddatiga qo'shimlaydi.

Yangi Mehnat Kodeksi mehnat sharoitlarining o'zgarishi, boshqa ishga o'tkazish va mehnat shartnomasida nazarda tutilgan ish joyidagi o'zgarishlar bilan bir qatorda, mehnat shartnomasini o'zgartirish tushunchasiga ish beruvchining boshqa joyga ko'chishi munosabati bilan hududning o'zgarishi hamda xodimni boshqa ish beruvchiga ish safariga yuborishni ham kirittadi. Xodim boshqa ishga o'tkazilishi haqida qaror qabul qilinishidan oldin u qanday ishga rozilik berayotganini yaxshi tushunishi kerak, shuning uchun Kodeksda ish beruvchiga, xodimga o'tkazilayotgan

ishning mazmuni, ushbu ish uchun mehnat sharoitlari, shuningdek, ishni bajarish bilan bog'liq bo'lgan ichki qoidalari bilan tanishtirish majburiyati yuklanadi. Ishlab chiqarish zarurati yoki bekor turib qolinishi munosabati bilan vaqtinchi boshqa ishga o'tkazilishning eng uzoq davri 1 kalendar yil davomida 60 kalendar kungacha belgilangan.

Xodim uchun sog'lig'ining holatiga ko'ra tibbiy xulosa bilan tasdiqlangan qarshi ko'rsatmalar bo'lganda xodimni boshqa ishga o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

Birinchi marta xodimning roziligi bilan vaqtinchi boshqa ishga o'tkazilishning muddati belgilangan. Shunday qilib mehnat shartnomasi tarafdari kelishuviga ko'ra, xodim ish beruvchiga 1 yilgacha, bunday o'tkazish qonun hujjatlariga muvofiq ish joyi vaqtinchi saqlanib kolgan vaqtinchi ishlayotgan xodimning vazifasini bajarish uchun amalga oshirilgan taqdirda bu xodim ishga qaytgunga qadar boshqa ishga vaqtincha o'tkazilishi mumkin.

Xodimning boshqa ish beruvchiga vaqtincha xizmat safariga jo'natilishi — bu mehnat shartnomasini o'zgartirishning yangi turi hisoblanadi va faqat xodimning roziligi bilan 1 yildan bo'lmagan muddatga amalga oshiriladi. Bunda oldingi tuzilgan mehnat shartnomasining amal qilishi to'xtatilib turiladi. Zarur bo'lgan hollarda, xizmat safari muddati tomonlarning kelishuviga binoan uzaytirilishi mumkin, ammo ko'pi bilan 1 yilga. Xizmat safari o'tqandani keyin xodimga avvalgi ishi qaytarilishi kerak, uning avvalgi mehnat shartnomasi tiklanadi.

Vaqtincha xizmat safariga yuborilgan mehnatga haq to'lash xodim vaqtincha xizmat safariga yuborilgan ish beruvchi tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu ish

beruvchi to'lovga qobiliyatsiz bo'lgan taqdirda, bajarilgan ish uchun haq to'lash majburiyati xodim vaqtincha xizmat safariga yuborilgan ish beruvchiga nisbatan regress da'vo qo'zg'atish huquqi bilan xodimni vaqtincha xizmat safariga yuborgan ish beruvchi zimmasiga yuklatiladi.

Agar yangi ish joyidagi mehnatga haq to'lash shartlari yoki dam olish vaqti xodim uni vaqtincha xizmat safariga yuborgan ish beruvchida foydalanganidan farq qilsa, xodimga nisbatan qulayroq shartlar qo'llaniladi. Boshqa ish beruvchiga vaqtincha xizmat safariga yuborilgan xodimning ish staji umumiy ish stajiga kiritiladi.

Kodeksda ish joyini o'zgartirish aniqlashtirilgan. Ish joyi ish beruvchi tomonidan bevosita yoki bilvosita nazorat qilinadigan joy bo'lib, xodim bu joyda bo'lishi yoki u mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan mehnat vazifasiga doir ishni bajarish uchun bu joyga yetib kelishi kerak. Mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilmagan ish joyining o'zgarishi (xodimni ayni o'sha ish beruvchidagi boshqa ish joyiga, xuddi o'sha hududda joylashgan boshqa alohida bo'lmagan bo'linmaga o'tkazish yoki xodimga boshqa mexanizmda yoki agregatda ishlashni topshirish) ish avvalgi mehnat vazifasi bo'yicha va ayni o'sha mehnat shartnomasining davom ettirilgan taqdirda, xodimning roziligi talab etmaydi. Agar muayyan ish joyidagi (ayni o'sha hududda joylashgan alohida bo'lmagan bo'linmadagi, aniq mexanizmdegi yoki agregatdagi) ish mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan bo'lsa, ish joyini o'zgartirishga faqat xodimning roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

E'zozxon ABDULLAYEVA suhbatlashdi.

“SPARTAKIADA” MUSOBAQALARI G'OLIBLARI MUNOSIB TAQDIRLANDILAR

“Butunjahon salomatlik kuni” munosabati bilan jamiyatda Spartakiada musobaqalari boshlab yuborilgan edi.

Hozirgi kunga qadar spartakiadaning stol tenisi, shashka va shaxmat turari bo'yicha musobaqalar o'z yakuniga yetib, g'oliblar aniqlandi. Unga ko'ra stol tenisi sport musobaqasi bo'yicha ayollar o'rtasida 1-o'rinni Nodira Yo'ldasheva Davolash-sog'lomlashtirish diagnostika sexi hamshirasi, 2-o'rinni Anastasiya Yashkova Elektr ta'minoti sexi mehnatni tashkil etish va me'yorlar bo'yicha muhandis va 3-o'rinni Nozima Abduraxmonova XMD sexi apparatchisi egalladilar. Erkaklar o'rtasida 1-o'rinni Izzatulloh Qosimov Elektr ta'minoti sexi ustasiga, 2-o'rinni Otabek Madaminov Ilimiy innovatsiya markazi yetakchi mutaxassisiga va 3-o'rinni Umidjon Mirzaolmurov

Konditsionerlarni ta'mirlash uchastkasi chilangariga nasib etdi.

Shashka bo'yicha ayollar o'rtasida g'oliblikni Janona Valiyeva XMD sexi plastmassa buyumlarini presslovchisi, 2-o'rinni Alla Popova MTS nazoratchisi va 3-o'rinni Raximova Nargiza SA va SKQI sexi apparatchisi qo'lga kiritdilar. Erkaklar o'rtasida esa 1-o'ringa Azizbek Abdurazzaqov JMT sexi ustasi, 2-o'ringa Shaxboz Usmonov Soda sexi chilangari hamda 3-o'ringa Bahodir Tilavoldiyev JMT sexi chilangari savzor bo'ldi.

Shuningdek, shaxmat bo'yicha ayollar o'rtasida mutloq g'oliblik Zarina Samatova Mochevina i/ich sexi ishlab

chiqarish laboratoriyasi katta ustasiga, 2-o'rin Nargiza Yuldasheva SN va SRQ nazoratchisiga, 3-o'rin Dilnoza Abdumajidova SN va SRQ yetakchi muhandisiga nasib qildi. Shu o'rinda, erkaklar o'rtasida Nuriddin Aminov IChT boshqarmasi yetakchi mutaxassis 1-o'rinni, Andrey Petrov Elektr ta'minoti sexi operativ dispetcheri 2-o'rinni va Sherzodali Fozilov Temir yo'l sexi mashinisti 3-o'rinni egalladilar.

Mazkur turlar bo'yicha o'rinalar egalari korxonada ma'muriyati hamda kasaba uyushma qo'mitasi tomonidan diplomlar va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandilar.

O'z muxbirimiz.

ELEKTR ENERGIYASI HAQIDA TUSHUNCHA

Elektr tokidan hamma jabhalarda keng foydalanilishi sababli odamlar kundalik hayotida har xil elektr uskunalardan foydalanishadi.

Elektr uskunalardan foydalanish qoidalari buzilishi va ularning nosoz holdaligi sababli kichik kuchlanish ham fuqarolar sog'lig'iga zarar yetkazishi yoki hayotiga jiddiy xavf keltirishi mumkin. Elektr tokidan xavfsiz foydalanish uchun, birinchi navbatda elektr uskunaga va jihozlaridan foydalanish qoidalari o'zlashtirish lozim.

Fuqarolarni elektrdan shikastlanish jarayonlari aksariyat 1000 voltgacha kuchlanishdagi elektr uskunalardan foydalanishda, tok urishi esa 1000 volt dan katta kuchlanishdagi elektr uskunalarda kelib chiqadi.

Elektr toki urishining asosiy sabablari:

- elektr moslamalarining izolyatsiya qismlari ochilib qolishi sababli, kuchlanish ostida bo'lib, qolgan metall

konstruksiyalarga tegib ketishi natijasida; -elektr moslamalari izolyatsiyasining ochilib qolgan joylarida yoki tok yuradigan qismlarining yerga tutashuv joylaridan yurib o'tganda; -kuchlanish ostida bo'lgan elektr moslamalari qismlariga tegib ketish yoki ruxsat etilmagan yaqinlashuvi natijasida.


Elektr tokini organizmga ta'siri shikastlanishiga olib kelishi ko'p xususiyatli bo'lib, quyidagi omillarga bog'liq:

- tokning turi va miqdoriga, chastotasiga;
- ta'sir qilish vaqti va yo'l'iga;
- kuchlanishdagi qismlarni ulash joyiga, yuzasiga va kuchlanish miqdoriga;
- tashqi muhit sharoitiga va odam tananining qobiliyatiga;
- Himoya vositalaridan foydalanishiga va boshqa omillarga.

Insonning elektr toki bilan elektr jarohati va elektr (tok) urishi bilan farqlanadi. Elektrdan quyish, qisqa tutashuv natijasida chiqqan uchqundan ko'zning yoki boshga biror joyini zararlanishi, elektr toki bilan shikastlanishi natijasida inson xushini yo'qotishi oqibatida yiqilishi sababli kelib chiqqan sinish, chiqqish va shu kabi mexanik shikastlanishlar kiradi.

Elektr toki urgan odamning ichki a'zolari jarohatlanadi. Elektr toki ta'sirida inson organizmida muskullarning qisqarishi, xushdan ketish yurak qon tomirining urishi, qon aylanishning buzilishi, nafas olishning to'xtashi, bosh miya tomirining kengayishi kelib chiqadi.

Xullas biz har qanday holatda elektr tokidan shikastlangan kishiga birinchi yordam ko'rsatishi omillarini bilishimiz kerak. Chunki inson hayoti eng aziz va



muqaddas bo'lib, uni saqlab qolish har birimizning burchimizdir.

R. MADAMINOV, "Farg'onaazot" AJ OBYXTTEB inspektori katta leytenanti.

SHIFOKORIM TABIAT!

Hayotiy tajribalar limonning "Meyer" navidan sifatli hosil olish mumkinligini ko'rsatdi.

Bu nav bo'yi nisbatan kichikligi va erta hosil bera olishi bilan boshqa navlardan ajralib turadi. Ko'chat o'tkazilganidan 2 yildan so'ng hosilga kiradi. Mahalliy sharoitga ko'proq moslashgan, biroq sovuqqa chidamli bo'lmaganligi bois mamlakatimizda issiqxonalarda o'stirilmoqda. Yaxshi parvarish qilinganda har tupidan 400-500 tagacha limon mevasini olish mumkin.

Limonning foydali xususiyatlari juda ko'p bo'lib, mevasining yumshoq qismida organik kislotalar, vitamin A, V, S, D, fitonsidlar, natriy, magniy, kaliy, kalsiy, fosfor, temir kabi unsurlar mavjud.

Limon avitaminoz va aterosklerozi oldini olishda bebaho ne'mat. Limon jarohatlarning bitishini tezlashtiradi, masalan suyaklar singanda tez bitishiga yordam beradi. Sharqning mashhur tabibi Abu Ali ibn Sino hamolador ayollarda toksikozi bartaraf etish uchun limon mevasidan keng foydalanagan.

Limon sharbati grippi oldini olishga yaxshigina yordam beradi. Chunki limon mevasi tarkibida vitamin S ko'p bo'lib, immunitetni yaxshilaydi. Gripp tarqalganda limon va uning



sharbatini ovqatga qo'shib iste'mol qilish juda xam foydali natija beradi.

Limon sharbati oshqozon tizimini "uyg'otib" taomlarni qabul qilishga tayyorlaydi. Biz yo'g'i bir stakan limonli iliq suv kun davomida oziq moddalarning so'rinishini

sezilarli darajada yaxshilash mumkin. Limon kislotasi me'da shirasining sekresiyasining oshiradi, shuningdek, moddalar almashinuvini yaxshilaydi.

Mutaxassislarning ta'kidlashlaricha, limon sharbati ortiqcha vazn yo'qolishiga ham sabab bo'lar ekan. Limon sharbatida pektin maddasi bo'lib, u to'qlik xissini oshiradi va ishtahaning yo'qolishiga olib keladi. Po'stlog'ida sitrusli flavonoidlar mavjud bo'lgani uchun meva ko'plab fermentlar faolligini o'zgartirishga qodir va antibakterial ta'sirga ega. Jismdan zararli toksinlarni chiqarib yuboradi va shuningdek, terining himoya qatlamini, immun tizimini rag'batlantiradi.

Darvoqe, shamollaganda va darmon quriganida, yuqumli kasalliklarda malham bo'lvuchi bu ajoyib mevaning bosimini pasaytiruvchi xususiyati bor, qandli diyabet kasalligini davolashda ham darmon sifatida ishlatish mumkin. Ayni vaqtda limon bozorlarimiz rastalarini bezab turibdi. O'zi va yaqinlarini sog'lig'iga bee'tibor bo'lmagan kishilarga maslahatimiz limonning shifobaxsh xususiyatlaridan bahramand bo'ling! Shuning uchun bezajga aylilmaydi shifokorim tabiat deb!!!

S.TURG'UNOVA, Farg'ona shahar ekofoyiza va atrof-muhitni muhofaza qilish inspeksiyasi davlat inspektori.



Botulizm kasalligi haqida nimalarni bilish kerak

Ma'lumki yoz mavsumida uy bekari tomonidan sabzavot mahsulotlaridan konserva tayyorlash odat tusiga kirgan. Aslida bu tayyorlanayotgan konserva mahsuloti iste'mol uchun yuqorilim degan savol ko'pchilikni qiziqtiradi. Yo'q albatta chunki, "Botulizm" degan xavfli kasallikning kelib chiqishiga aynan shu uy sharoitida tayyorlangan konserva mahsuloti sabab bo'ladi. Buni viloyatimizning Rishton, Beshariq, Farg'ona tumanlari va Marg'ilon, Qo'qon shaharlarida yashovchi fuqarolarimiz biladilar. Ayniqsa Rishton tumani botulizm kasalligini o'chog'iga aylanib ulgurdi.

Botulizm — ovqatdan zaharlanishlar ichida og'ir kechadigan va ko'p holatlarda o'lim bilan yakunlanadigan kasallikdir. "Botulizm taqqoqchalari" mikrobi tabiatda keng tarqalgan bo'lib, tuproq, suvda va hayvon, baliqlar ichagida uchraydi. Tuproqda spora-qobiq holda yillar davomida saqlanadi. Sporalar tuproq orqali pomidor, sabzavot, qo'ziqorin va boshqa oziq-ovqat mahsulotlariga o'tadi va konserva tayyorlash texnologiyasiga rioya qilinmagan sharoitda tayyorlangan, og'ir mahkam yopilgan idish ichida rivojlanadi.

Uy sharoitida sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlaridan tayyorlangan konservada — havosiz sharoitda sporalari asl holiga qaytib o'zidan kuchli zahar-botulotoksin chiqaradi. Qarabidsizki, konserva mahsuloti tayyor zaharga aylanadi. Odatda zararlangan konservani qopqog'i shishib qoladi. Lekin shuni yaxshi bilishimiz kerakki ushbu zahar, tayyorlangan konservaning rangi va ta'mini o'zgartirmasligi ham mumkin. Shu sababli zaharlangan konservani sifatini bilib bo'lmaydi. Toksin oziq-ovqat mahsulotlari bilan organizmga tushgach, oshqozon shirasida parchalanmasdan ichakda so'riladi, bosh miya va mushaklardagi asab tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Odatda kasallikni yashirin davri bir necha soatni tashkil qiladi, lekin bir necha kungacha cho'zilishi ham mumkin. Bunda bemorda zaharlanish belgilari — umumiy darmonsizlik, bosh og'rig'i va ko'ngil aynishi kuzatiladi. Shuningdek, ko'z qorachig'i kengayib, narsalar ko'zga qo'shaloq bo'lib, ko'rina boshlaydi. So'ngra yumshoq tanglay, halqum falajlanadi. Oqibatda ovqatni chaynash va utush qiyinlashadi. Bunday zaharlanish holatida organizmni tiklanish davri agar kasallik yengil o'tsa 2-3 hafta, og'ir o'tqanda esa 2-3 oy davom etishi mumkin. Botulizm bilan og'rikan bemorlar faqat shifoxonada

maxsus botulizmga qarshi zardob bilan davolanadilar. Kasallik o'chog'ida, ya'ni, kasallik kelib chiqqan xonadonda SEO va JS bo'limlari (SES) xodimlari surishtiruv uchun tarqalgan bo'lib, tuproq, suvda va hayvon, baliqlar ichagida uchraydi. Davomida saqlanadi. Sporalar tuproq orqali pomidor, sabzavot, qo'ziqorin va boshqa oziq-ovqat mahsulotlariga o'tadi va konserva tayyorlash texnologiyasiga rioya qilinmagan sharoitda tayyorlangan, og'ir mahkam yopilgan idish ichida rivojlanadi.

Uy sharoitida sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlaridan tayyorlangan konservada — havosiz sharoitda sporalari asl holiga qaytib o'zidan kuchli zahar-botulotoksin chiqaradi. Qarabidsizki, konserva mahsuloti tayyor zaharga aylanadi. Odatda zararlangan konservani qopqog'i shishib qoladi. Lekin shuni yaxshi bilishimiz kerakki ushbu zahar, tayyorlangan konservaning rangi va ta'mini o'zgartirmasligi ham mumkin. Shu sababli zaharlangan konservani sifatini bilib bo'lmaydi. Toksin oziq-ovqat mahsulotlari bilan organizmga tushgach, oshqozon shirasida parchalanmasdan ichakda so'riladi, bosh miya va mushaklardagi asab tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Odatda kasallikni yashirin davri bir necha soatni tashkil qiladi, lekin bir necha kungacha cho'zilishi ham mumkin. Bunda bemorda zaharlanish belgilari — umumiy darmonsizlik, bosh og'rig'i va ko'ngil aynishi kuzatiladi. Shuningdek, ko'z qorachig'i kengayib, narsalar ko'zga qo'shaloq bo'lib, ko'rina boshlaydi. So'ngra yumshoq tanglay, halqum falajlanadi. Oqibatda ovqatni chaynash va utush qiyinlashadi. Bunday zaharlanish holatida organizmni tiklanish davri agar kasallik yengil o'tsa 2-3 hafta, og'ir o'tqanda esa 2-3 oy davom etishi mumkin. Botulizm bilan og'rikan bemorlar faqat shifoxonada

Kasallikdan so'ng bemorlarda turg'un immunitet hosil bo'lmaydi, ya'ni botulotoksin bilan zararlangan oziq-ovqat mahsulotini iste'mol qilgan inson qayta zaharlanishi mumkin.

Shuning uchun asosan uy bekalarimizga uy sharoitida konserva mahsulotini tayyorlamaslikni tavsiya qilamiz. Chunki uy sharoitida yuqori harorat, mukammal texnologik jarayonni hosil qilish hamda 2 atmosfera bosimni ta'minlab beruvchi avtoklav tashkil etishi imkoni yo'q. Bunday imkoniyat maxsus zavodlarda bo'ladi xolos. Ayniqsa har xil marosim, tadbirlarda o'zlar tomonidan uyda tayyorlangan pomidorli, bodringli, umuman sabzavotli konservalarni dasturxonaga tortish xatoligini tushunib yetishimiz kerak.

Shu sababli zavodlarda ishlab chiqarilgan konserva mahsulotini yoki salatlar, shakaroplar ko'liga azaldan ota-onalarimiz tayyorlab kelgan pomidor qog'ini yuvib-tozalab iste'mol qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Nuriddin MIRBOBOYEV, Farg'ona viloyat Sanitariya-epidemiologik Oyoqshaltik va jamoat salomatligi boshqarmasi ovqatlanish gigiyenasini bo'lim mudiri.



Безопасный труд - основа качественной и полноценной жизни каждого человека

ВСЕМИРНЫЙ ДЕНЬ
ОХРАНЫ ТРУДА

БЕЗОПАСНАЯ И ЗДОРОВАЯ РАБОЧАЯ СРЕДА — ОСНОВОПОЛАГАЮЩИЙ ПРИНЦИП И ПРАВО В СФЕРЕ ТРУДА

Международная организация труда (МОТ) отмечает 28 апреля Всемирный день охраны труда в целях содействия предотвращению несчастных случаев и заболеваний на рабочих местах во всем мире.

В этот день особо хотелось бы привлечь внимание общественности к проблемам в области охраны труда и к росту числа травм, заболеваний и смертельных случаев, связанных с трудовой деятельностью.

Тема Всемирного дня в 2023 году - Безопасная и здоровая рабочая среда - основополагающий принцип и право в сфере труда.

За время практики и статистики несчастных случаев на производстве мы убедились в том, что наличие надежной системы охраны труда, функционирующей при активном участии правительства, работодателей, работников, органов здравоохранения и всех заинтересованных сторон на национальном уровне и на уровне предприятий, играет важнейшую роль в сохранении нормальных условий труда и обеспечении безопасности и здоровья работников. В течение года на подконтрольных предприятиях и организациях произошло 81 несчастный случай. Среди них было 28 случаев с летальным исходом и 5 групповых инцидентов. В результате этих происшествий 48 человек получили телесные повреждения различной степени тяжести.

Как показывает анализ, более чем в 60 процентах случаев подобная ситуация вызвана организационными причинами. Это неправильная организация труда на производстве и недостаточная квалификация работников в области охраны труда, техники и

промышленной безопасности, низкая производственная дисциплина. Еще 30 процентов несчастных случаев приходится на выход из строя технического оборудования, нарушение его конструкции, несоответствие нормативным документам и требованиям проекта, недостатки в обслуживании технических устройств.

